

PEDAGOGIK MAHORAT

MS
2021



Nodirabegim RAJABOVA. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari tadqiqotchilik faoliyatini takomillashtirish modeli.....	128
Yusufzoda Shabnam. Boshlang'ich sinf matematika darslarida o'quvchilarning fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish.....	132
Mardon YARASHOV. Boshlang'ich ta'limning dars jarayonlariga raqamli texnologiyalarni tadbiq etish vositalari.....	135
Dilora SIDIQOVA. Masofaviy ta'lim sharoitida "matematika o'qitish metodikasi" fanini o'rgatishda talabalarning kasbiy kompetensiyasini takomillashtirishning metodik asosi.....	138
O'g'iljon OLLOQOVA. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida sintaktik kompetensiyalarni takomillashtirish..	142
Umida TOG'AYEVA. Loyihaviy ta'lim vositasida "ona tili o'qitish metodikasi" modulini takomillashtirish yo'llari.....	146
Gavhar RUSTAMOVA. O'zbek xalq ertaklarida daraxtlar obrazi bilan bog'liq epik talqinlar.....	150
Feruza ABDULLAYEVA. Matematika darslarida interfaol metodlardan foydalanish.....	154
Feruza ABDULLAYEVA. Ta'lim tizimi sifatini oshirishda pisa va timss kabi xalqaro tadqiqotlarning roli.....	156
Dilnoza XAYRULLAYEVA. 4-sinf ona tili darslarida gap bo'laklarining o'qitilishi.....	159
Mohichehra IBROHIMOVA. Boshlang'ich sinf matematika darslarini o'tishda "day game"dan foydalanish.....	163
Mahliyo HAYDARQULOVA. Boshlang'ich sinf matematika darslarida o'quvchilarda axborot kompetentligini oshirishda inkorporatsiyadan foydalanishning o'RNI.....	166
Madina OZODOVA. Boshlang'ich sinflarda sintaktik tushunchalarni o'rgatishning metodik imkoniyatlari.....	170
Nigora RO'ZIYEVA. Boshlang'ich sinf matematika darslarida ulush va kasr tushunchalariga doir masalalarni tushuntirishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish.....	172
Shahlo SAPAROVA. The classification of Elbek poems in 5 directions.....	175
"Pedagogik mahorat" jurnali uchun maqolalarni rasmiylashtirish talablari.....	178

BOSHLANG'ICH SINIF MATEMATIKA DARSLARINI O'TISHDA "DAY GAME"DAN FOYDALANISH

Bu maqolada boshlang'ich sinf matematika darslarida integratsiyadan foydalanishning zamonaviy usullari haqida fikrlar bayon qilingan. Undan tashqari "Kun o'yini" texnologiyasi haqida fikrlar berilgan. Bu o'yin bolalarning dars davomida matematika va ingliz tili fanlarini integratsiya asosida o'rganishiga yordam beradi.

Kalit so'zlar: kun o'yini, integratsiya, matematika, arifmetika, boshlang'ich ta'lim, boshlang'ich ta'lim pedagogikasi.

В этой статье обсуждаются идеи современных способов использования интеграции на уроках элементарной математики. Кроме того, есть мнения о технологии "Игры дня". Эта игра помогает детям комплексно изучать математику и английский язык во время урока.

Ключевые слова: игра дня; интеграция, математика, арифметика, начальное образование, педагогика начального образования.

This article primary math classes covering the integration of technologies. This article gives you a brief overview on the "game of the day" This is very usefull for children ideas. integration in mathematics is very interesting end easy for pupil.

Key words: day game, integration, mathematics, arithmetic, Primary education Pedagogy of primary education.

Kirish. Hozirgi paytda ilm-fan yuksalib, yurtimizda im-fanga qaratilayotgan e'tibor yanada yuksalib bormoqda. Qanday sohaga qaramaylik im-fanni yanada keng targ'ib qilish uchun chet tilini mukammal biladigan kadrlar ishi ko'proq tahsinga sazovor bo'lmoqda. Chunki, ularning ilmiy ishi xalqaro ahamiyatga ega bo'ladi. Chet tilini mukammal bilgan kadr o'z ilmiy ishini xalqaro standartlar asosida chet elda ham e'lon qiladi. Bu esa mamlakatimizda ilm-fanning yanada rivojlanib borayotganidan darak beradi. Hozirgi kunda zamon talab qilayotgan o'qituvchi ham chet tilini mukammal bilishi, o'z fanini chet tilida ham o'ta olishi kerak. Mamlakatimizda chet tiliga qanchalar kuchli e'tibor berilmasin, bu sohada oqsoqlanish bor. Bu sabablarni yo'qotish uchun, maktabda va universitet, litseylarda chet tilida dars berishni bosqichma-bosqich boshlash kerak. Qozog'iston, Portugaliya va boshqa ko'plab chet mamlakatlarida ba'zi fanlar chet tilida o'tiladi. Portugaliyada o'qishga qabul qilinayotgan talaba o'z ona tilidan boshqa yana bir xorijiy tilni mukammal bilishi kerak. Aynan mana shu tajribalardan kelib chiqqan holda, o'quvchilar ham chet tilida dars o'tilganda darsga tushunishi, chet tilida erkin fikrlay olishi kerak. Bu bosqichga yetish oson emas, ammo o'qituvchilardan yuqori malaka talab qilinadi.

Asosiy qism. Darslarni chet tilida o'tish va bunga o'quvchilar tushunishlari uchun bosqichma-bosqich darsni chet tilida o'tish kerak. Buni boshlang'ich sinf matematika darsi misolida ko'ramiz. Birinchi bosqichda dars qismlari, dars mavzusini chet tilida nomlash kerak. Masalan, "Square" ("Kvadrat"). Ikkinchi bosqichda esa fanga oid atamalarni, ko'p ishlatiladigan so'zlarni chet tilida ayta boshlash kerak. Masalan, "paremetr", "addition" shunga o'xshash so'zlarni chet tilida qo'llay olish kerak. Uchinchi bosqichda kelib matematik masalalarga qisqacha shart tuzishda ingliz tilidan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Keyinchalik ingliz tilida asta sekin dars o'tish uchun baza yaratiladi.

Boshlang'ich sinf matematika darslarida pedagogik texnologiyalarni qo'llash va innovatsion darslar tashkil qilish haqida bir qancha adabiyotlarda ma'lumotlar berilgan. Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitishni takomillashtirish yuzasidan tadqiqot ishlarida olimlar boshlang'ich sinflarda matematikani tabaqalashtirgan holda o'qitish (N.U.Bikbayeva), boshlang'ich sinflarda matematik masalalarni yechishda grafik tasvirlardan foydalanish usullari (L.Sh.Levenberg), kichik yoshdagi o'quvchilarning 4-5-sinflarda matematika bo'yicha mantiqiy tayyorgarligi (T.Kamolova), boshlang'ich sinf o'quvchilarining matematika darslarida o'quv faoliyatini faollashtirish muammolari (Sh.R.Rayhonov), boshlang'ich sinflarda o'quvchilarda uzunlik va yuza kabi miqdorlar to'g'risidagi tushunchalarni shakllantirish masalari (M.Salixova), kichik maktab yoshidagi bolalarda miqdoriy, statistik bilim elementlarini shakllantirish (N.Xoliqova), og'zaki matematik mashqlar sistemasi yordamida boshlang'ich sinf o'quvchilarning hisoblash malakalarini shakllantirish (M.Zayniddinova), boshlang'ich maktab o'quvchilarida bilish faoliyatini shakllantirishning didaktik asoslari (R.Ibragimov), boshlang'ich sinf matematika darslarida ijodiy topshiriqlar tizimi (F.Qosimov) kabi mavzularda tadqiqot ishlarini olib borishgan.

Darsni chet tili bilan hamohang olib borish jarayoni qiyin, albatta. Ammo, darsni qiziqarli o'yinlar, pedagogik texnologiyalar asosida olib borilsa, o'quvchilarning darsga tushunishi yuqori darjaga erishadi. Quyidagi o'yin orqali darsni tushuntirish jarayoni olib borilsa, o'quvchilarni darsni o'zlashtirish ko'rsatichi yuqorilaydi.



Bu o'yinning nomi "Day game" (kun o'yini).

O'yinning maqsadi:

1. O'quvchilarni matematika faniga qiziqtirish, darsni o'zgacha yangilik-o'yin asosida olib borish.
2. Matematika darsida o'quvchilar matematik tushunchalarni ingliz tilida bilib olishlarini ta'minlash.
3. O'yin davomida o'quvchilarda ekologik madaniyatni shakllantirish;
4. "Day game" ya'ni "Kun o'yini" orqali matematika darsini ingliz tili, tabiatshunoslik darslari bilan integratsiya qilish.
5. O'quvchilarda jamoada ishlash ko'nikmalarini yanada takomillashtirish.

Muhokamalar va natijalar. Bu o'yinning sharti shundan iboratki, sinfda ikki jamoaga bo'linib o'ynash uchun yaratilgan. Boshlang'ich sinf o'quvchilari quyosh yer atrofida aylanadi deb hisoblashadi. Bu o'yinning markazida esa Quyosh bor va uning atrofidan Yer aylanadi. Buning zamirida o'quvchilar ongida aslida Yer Quyoshning atrofida aylanishi haqida tushuncha hosil bo'ladi. Quyoshdan chiqqan strelka orqali Yer uning atrofidan aylanish bilan birga 12 topshiriqni ham bajarib o'tadilar. O'yin shartiga binoan 2 ta jamoa uchun ikkita tipratikan bor va ular har bir topshiriqqa bir qadam ilgari lab boradi. Tipratikanlarning bolasi och. Ular uyalarida onasining unga ovqat olib kelishini kutib o'tiribdi. Ularning yonida savat bo'lib, savatlarga uch xil olma tushadi. Topshiriqlarga jamoalarning javobiga qarab, besh bahoga - qizil olma, to'rt bahoga - sariq olma va uch bahoga - yashil olma savatlariga kelib tushadi. O'yinda Quyosh (Sun), Yer (Earth), savat (basket), olma (apple), tipratikan (hedgehog) kabilar ingliz tilida aytiladi. Nihoyat, topshiriq nomlari ham ingliz tilida yuritiladi. Bu o'yinda quyidagi topshiriq nomlari mavjud:

- **mathematic dictation** (matematik diktant) - unga ko'ra o'qituvchi ikkala guruh o'quvchilariga ham og'zaki bir nechta misollarni aytadi. O'quvchilar tezkorlik bilan yechishlari kerak. Masalan, $1m = \dots dm$, $23kg = \dots g$...

- **questions** (savollar) - bu topshiriqda o'qituvchi ingliz tilida matematik savol beradi. Masalan, What is square? (kvadrat nima?) What is perimetr?(perimetr nima?) va hokazo savollarni berish mumkin.

- **solve examples** (misollar ishlash) - bu topshiriqda darslikka binoan keltirilgan misollar yechiladi.

Masalan:

1. Misollarni yeching, natijani tekshiring.

$34 + 12$ $41 + 27$ $62 + 3$ $56 + 22$ $26 + 13$ $27 + 11$ $57 + 3$ $44 + 32$

- **problem solving** (masala yechish) bu topshiriqqa ko'ra darslikda keltirilgan mavzudagi masala yechish topshirig'i beriladi. Masalaga qisqacha shart ingliz tilida tuziladi.

2. Masalalarni yeching:

1) issiqxonada 60 ta oq va 40 ta qizil atirgul ochilgan edi. Issiqxonada hammasi bo'lib nechta atirgul ochilgan?

There are - 60 white roses

There are - 40 red roses

How many is it all?

- **a minute of rest** (dam olish daqiqasi) - bu bosqichda o'quvchilar bilan dam olish daqiqasi o'tkaziladi.

- **crossword** (krossvord). Bu bosqichda o'quvchilar jamoasiga krossvordlar topshiriladi.

- **independent work** (mustaqil ish). Bu topshiriqda o'quvchilar jamoasiga mustaqil yechishlari uchun topshiriq beriladi.

3. Yig'inini toping.

Qo'shiluvchi	60	32	24	50	26	14	57
Qo'shiluvchi	40	8	13	5	32	6	32

Yig'indi							
----------	--	--	--	--	--	--	--

- test (test). Bu topshiriqqa ko'ra o'quvchilar jamoasiga test topshirig'i beriladi.

$78 - 70 =$ A) 5 B) 6 C) 7 D) 8

$89 + 1 =$ A) 90 B) 91 C) 92 D) 93

$(54 - 34) + 20$ A) 50 B) 40 C) 30 D) 60

$(60 + 23) - 80$ A) 6 B) 3 C) 4 D) 5

Bu o'yindan faqatgina boshlang'ich sinf matematika darslarida emas, balki boshqa fanlarda ham keng qo'llash mumkin. Faqatgina o'yin shartlarining nomini o'zgartirish kerak. Bu o'yinning zamirida o'quvchilarning matematik bilimlarini chet tilida ham qo'llay olish ko'nikmasini o'stirish yotibdi. Bu o'yinni o'ynash uchun o'qituvchiga qo'yilgan talab:

- jamoani shakllantirish, topshiriqlarni ketma-ketlik asosida tuzish;
- matematik tushunchalarni ingliz tilida o'rgatish, tabiatshunoslik bilan bog'lash;
- o'quvchilarga ekologik tarbiya berish, o'quvchilar qalbida mehr tuyg'usini shakllantirish;
- o'quvchilar o'rtasida do'stona aloqa o'rnatish;
- har tomonlama bilimli o'quvchilarni tarbiyalash;

Bu o'yinni o'ynash uchun o'quvchilarga qo'yilgan talab:

- matematik tushunchalarni ingliz tilida bilish;
- darsda bilimdonlik, jamoada ishlash;
- matematik bilimlarni mustahkamlash;

"Day game" o'yini orqali darsni tashkil qilganda quyidagi natijalar kutiladi:

- o'quvchilarda matematika darsida, nafaqat matematik bilimlar, balki ingliz tilini ham o'rganadilar;
- ularda jamoa bo'lib ishlash, chuqur fikrlash, narsaning mohiyatini har tomonlama ko'ra olish qobiliyati shakllanadi, kelajakda chet tilida mukammal gapira oladigan, chet el iqtisodiyoti tajribalarini o'rganib, mamlakatimiz rivojiga ulkan hissa qo'shadigan har tomonlama yetuk kasb egasi bo'lib yetishishadi;

- o'quvchilarda yanada yangi o'yin o'ynash orqali mavzuni o'zlashtirish samaradorligi yuqori bo'ladi;
- kelajakda chet el matematika olimpiadalariga qatnashib, munosib o'rinnlarni egallab mamlakatimiz nomini ko'klarga ko'tarish uchun zamin yaratiladi.

O'quvchida mustaqil fikrlashga, ijodkorlik ruhida tarbiyalashda ijodiy mazmundagi o'quv topshiriqlari muhim ahamiyat kasb etadi. Kuzatish va tajribalar shuni ko'rsatadiki, boshlang'ich sinf o'quvchilari matematikadan arifmetik amallarni bajarish mazmundagi o'quv topshiriqlarini bajarishda qiynalishmoqda. Bunday o'quv topshiriqlarini bajarishda pedagogik texnologiyadan unumli foydalanib, matematika ta'limida arifmetik amallarni o'rgatish jarayonida pedagogik texnologiyalardan foydalanishni taqozo qilmoqda. Shu nuqtayi nazardan tanlangan mavzu dolzarbdir.

Xulosa qilganda, boshlang'ich sinf matematika darslarida pedagogik texnologiyalardan foydalanganda, o'quvchilarda bilim olish samaradorligi o'sadi, bilim saviyasi yuqorilab boradi, fanga qiziqishi ortadi. Matematika fanini chuqur bilgan o'quvchi kelajakda o'z o'rmiga ega bo'lgan, Vatanga sidqidildan xizmat qiladigan, har jabhada o'zini ko'rsata oladigan, har qanday vaziyatdan uddaburonlik bilan chiqib keta oladigan zamonaviy kadr bo'lib yetishadi.

Adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 27-oktabrdagi "Mamlakatimiz ta'lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirish, ilm-fan sohasi rivojini jadallashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoni

2. Saidova M., Ibrohimova M. An Integrated Approach to the Use of Pedagogical Technologies in Primary School Mathematics. Middle European scientific bulletin 2021. 101-104-betlar

3. Ibrohimova M. Improving integration in teaching arithmetic practices in primary school mathematics. Учённый XXI Века ISSN 2020, 31-33 betlar

4. Hasanboyev J., To'raqulov X., Haydarov M., Hasanboyeva O. *Pedagogika fanidan izohli lug'at*. – T.: "Fan va texnologiya" nashriyoti, 2008-yil.

5. N.Abdurahmonova va boshqalar. 2-sinf matematika darsligi. -Toshkent: "Yangiyo'l Poligraf Servis", 2018

7. G'ulomov P., Mirzahmatova Sh. Atrofimizdagi olam (2-sinf darsligi). –Toshkent: "Cho'lpon" nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2018.